WORLD FORUM ON ACADEMIC INNOVATION AND DIGITAL LITERACY

TARBIYA ORQALI MA'NAVIY VA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI VA MEXANIZMLARI

Avazbekova Gulzoda Anvarjonovna

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

University of Business and Science

Ona tili va adabiyot yo'nalishi 22-03-guruh talabasi

Mamatova Xuryona

Annotatsiya. Ushbu maqolada glballashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yosh avlodni ma'aviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning dolzarb masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy maqsad- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishning pedagogik usullari va ijtimoiy psixologik mexanizmlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida oila, ta'lim muassasasi va mahalla hamkorligining "uchlik modeli" tahlil qilinadi. Shuningdek ma'naviy tarbiyadagi tizimli muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Аннотация. В данной научной статье исследуются актуальные вопросы воспитания родрастающего поколения в духовно-нравственном духе в условиях глобализации и информационного общества. Основная цель статьи- раскрыть педагогическийе методы и социально-псохологические механизмы внедрения национальных и общечеловических ценностей в сознание молодёжи. В ходе исследования анализируется "тройная модель" взаимодействия семьи, образовательного учреждения и махалли. Также выдвигаются научно обоснованные предложения по системным проблемам духовного воспитания и их устранению.



Abstract. This scientific article examines current issues of upbringing the younger generation in a spiritual and moral spirit in the context of globalization and the information society. The main purpose of the article is to reveal pedagogical methods and socio-psychological mechanisms for introducing notional and universal values into the minds of youth. The study analyzes the "triple model" of cooperation between the family, educational institution, and the mahalla. Also scientifically based proposals for systemic problems of spiritual education and their elimination are put forward.

Tayanch so'zlar: ma'aviy-axloqiy tarbiya, qadriyatlar tizimi, pedagogik mexanizm, milliy o'zlik, globallashuv, ma'naviy immunitet, uzluksiz ta'lim, komil inson.

Количество слова: духовно-нравственное воспитания, система ценностей,педагогический механизм, национальная идентичность, глобализация, духовный иммунитет, непрерывное образование, гармонично развитая личность (совершенный человек)

Keywords: spiritual and moral education, system of values, pedagogical mechanism, national identity, globalization, spiritual immunity, lifelong learning (continuous education) a perfect man (harmoniously developed person).

Insoniyat tarixining barcha bosqichlarida jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uning ma'aviy-axloqiy darajasi bilan belgilangan. Bugungi kunda O'zbekistonda Yangi Uyg'onish davri-Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsad qilib qo'yilgan ekan, bu jarayonning markazida intelektual salohiyatli va yuksak axloqli yoshlar turishi lozim. Ma'naviyat- insonni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, uning ichki olamini boyitadigan qudratli kuchdir. Biroq yigirma birinchi asrda axborot oqimining tezlashishi" ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlari yoshlar tarbiyasida yangicha yondashuvlarni ya'ni zamonaviy mexanizmlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada tarbiyaning nafaqat an'anaviy usullarini, balki bugungi kun yoshlari

psixologiyasiga mos keladigan innovatsion metodlarni tahlil qilishni maqsad qilinadi. Ma'naviy qadriyatlar deganda biz asrlar davomida xalqimizning hayot tarziga aylanib ketgan, insonni inson qiladigan muqaddas tushunchalarni tushunamiz. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

-Milliy qadriyatlar: Ona tiliga muhabbat ajdodlar merosi(Al Xorazmiy ,Beruniy, Ibn Sino, Navoiy ogitlari), milliy urf-odat va marosimlar. -Umuminsoniy qadriyatlar: Adolat, erkinlik, tenglik, tinchliksevarlik va bag'rikenglik. -Diniy-axloqiy qadriyatlar: Islom dinining poklik, halollik va sahiylik haqidagi tamoyillari.

Ushbu qadriyatlar yoshlar ongida shunchaki nazariya bo'lib qolmasligi, balki ularning kundalik xulq-atvori (motivatsiyaga) aylanishi kerak. Bu jarayon axloqiy ong-axloqiy his tuyg'u-axloqiy iroda zanjiri" asosida kechadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada natijadorlikka erishish uchun pedagogik usullarni tasniflash va ularni qo'llash lozim: -Interaktiv va muammoli ta'lim usuli. An'anaviy maruza usuli bugungi yoshlar uchun biroz zerikarli tuyulishi mumkin. Shu sababli dars jarayonida axloqiy dilemmalarni(tanlov muammolarini) o'rtaga tashlash samaralidir. Masalan, sizning do'stingiz xato qildi siz uni himoya qilasizmi yoki haqiqatni aytasizmi?" kabi savollar talabani fikrlashga, o'zining axloqiy pazitsiyasini aniqlab olishga majbur qiladi. -"Uzluksiz ma'naviy namuna" usuli. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar eshitganidan ko'ra ko'proq ko'rganiga ishonadi.

Shu bois, jamiyatda obro'ga ega bo'lgan shaxslar, fan va sport yulduzlari, muvaffaqiyatli tadbirkorlarning hayot yo'li orqali vatanparvarlikni targ'ib qilish "namuna" usulining zamonaviy ko'rinishidir. Media- pedagogika va san'at orqali tarbiya.Kino ,teatr va badiiy adabiyot inson hissiyotlariga eng tez ta'sir qiluvchi vositalaridir. Tarixiy filmlar(masalan, "Munavvar qari", " Avloniy") orqali milliy

g'ururni shakllantirish, klassik asarlar tahlili orqali esa ezgulik va yovuzlik farqini ko'rsatish mumkin. Tarbiyani amalga oshirishning ijtimoiy mexanizmlari.

Mexanizm- bu maqsadga erishish uchun xizmat qiluvchi tizimli harakatlar majmuidir. Ma'naviy tarbiyada quyidagi mexanizmlar ustuvor hisoblanadi. Tarbiya mexanizmining birinchi va eng muhim bo'g'ini oiladir. Ota-onaning o'zaro munosabati, farzand bilan muloqot madaniyati bola xarakterining poydevorini qo'yadi. Hozirgi kunda "Ota -onalar universiteti" kabi loyihalarni kengaytirish orqali yosh ota-onalarga farzand tarbiyasining psixologik asoslarini o'rgatish zarur. Maktab va OTM larda ma'naviyat faqat "Tarbiya" fanlarida o'tilmasligi kerak. Matematika darsida aniqlik va halollikni, biologiya darsida tabiatga bo'lgan shavqatni o'rgatish - bu tarbiyaning fanlararo integratsiyasi mexanizmidir. Yoshlar vaqtining katta qismini internetda o'tkazmoqda. Shuning uchun " axborot psixologik xavfsizligini" ta'minlash mexanizmini yaratish lozim. Bu yoshlarga internetdan foydalanishni taqiqlash emas, balki ularda " axborotni saralash" (feyk va haqiqatni ajratish) ko'nikmasini shakllantirishdir. Globallashuv jarayoni milliy madaniyatlarning yuvilib ketishi xavfini tug'dirmoqda. " Ommaviy madaniyat" ostida kirib kelayotgan egoizm, loqaydlik va iste'molchilik kayfiyati yoshlar ma'naviyatiga zarba bermoqda. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari mustahkam yoshlar har qanday yot g'oyalarga chidamli bo'ladi. Buning uchun tarbiya mexanizmlarida "milliy g'oya" tushunchasini zamonaviy shakllarda(kvestlar, ijtimoiy roliklar, mobil ilovalar) taqdim etish zarur.

Tahlil va natijalar.

O'tkazilgan kuzatishlar va pedagogik tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Tarbiya jarayonida majburlov usuli o'z samarasini yo'qotgan; uning o'rniga " ishontirish va qiziqtirish" usuli birinchi o'ringa chiqishi kerak.
- Ma'naviy tarbiya tizimida "Oila-maktab-mahalla" zanjiri ko'p hollarda qog'ozda

qolmoqda. Uni amalda jonlashtirish uchun mahalladagi yoshlar yetakchilari va psixologlar faoliyatini muvofiqlashtirish zarur. -

Yoshlarning ma'naviy intilishlarini rag'batlantirish mexanizmi(tanlovlar, stipenduyalar) ularni o'z ustida ishlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyani shaklantirish- bu shunchaki pedagogik vazifa emas, balki millat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan milliy xavfsizlik masalasidir. Tarbiyaning usul va mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- Milliy qadriytlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish.
- Yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ularni yot g'oyalaran himoya qilish.
- Har bir peagog va murabbiyning o'z shaxsiy namunasida yuksak axloqni namoyon etishi .

Faqatgina ma'naviyat va ilm-fanni uyg'unlashtirgan jamiyatgina o'zining buyuk kelajagini qura oladi. Biz bugungi kun talabalari, bu jarayonning nafaqat obyektimiz, balki faol subyektihammiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti-2021-464 b.(davlat siyosati va strategik maqsadlari uchun.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch- Toshkent:" Ma'naviyat" -178 b

3. Ibrogimov H.J. Abdullayeva Sh. A. Pedagogika nazariyasi.(Darslik)-Toshkent "Fan va texnologiya"- 2008. 288-b(Tarbiyaning pedagogik usullari qismi uchun)

4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi- Toshkent "O'qituvchi", 2010.-192 b.(Qadriyatlar tizimini tahlil qilish uchun)

5.Hoshimov K., Safoyeva S. Pedagogika antologiyasi.- Toshkent "O'qituvchi" 2010. (Ajdodlar merosi va tarixiy yondashuvlar uchun)

6. Zunnunov A. Pedagogika tarixi(Oliy o'quv yurtlari uchun darslik) Toshkent "Sharq",2004- 335 b.(Sharq mutafakkirlarining tarbiyaviy qarashlari uchun)

7.Abdullajonova G. Globallashuv jarayonida yoshlar ma'naviy immunitetini shakllantirish mexanizmlari.// "Ta'lim va inovatsion tadqiqotlar" jurnali-Buxoro, 2022-N°4.